
DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

DEMOGRAPHCY
AND LABOR ECONOMICS



V
SON

2026

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

(+998) 50-005-45-69
https://t.me/demografiya_mehnatbozori
demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

2026-yil
5-son

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:
Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:
Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Zokirova Nodira Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, DSc., professor
Qurbonov Paxlavon Rustamovich, DSc, dotsent
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich, PhD
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
To'xtayeva Xurshida Farxodovna, PhD

MUNDARIJA

Umurzakov Bahodir Hamidovich
O‘zbekiston aholisining 2050-yilgacha demografik rivojlanish konsepsiyasi: ustuvor muammolar va maqsadli ko‘rsatkichlarni baholash..... **3**
Mamadaliyeva Xafizaxon Xoldarovna, Bahriddinova Muazzam Azam qizi
Reproduktiv jarayonlardagi demografik paradokslar va ularning raqamli transformatsiya sharoitida namoyon bo‘lishi: O‘zbekiston uchun dalillar va tadqiqot modeli..... **14**
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li, Sodiqjonov Lochinbek Bahromjon o‘g‘li
Suv resurslarining barqaror rivojlanishga ta’siri: O‘zbekiston, Tojikiston va Ozarbayjon misolida..... **30**
Ashurzoda Luiza Muxtarovna
Oliy ta’lim qamrovining kengayishi va ta’lim sifati o’rtasidagi nisbat..... **42**
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li
Inson kapitali sifatini oshirishning innovatsion iqtisodiyotga ta’sirini baholash..... **51**
Nishanova Zulxayo Bahromovna
Mehnat migrantlari pul o‘tkazmalariga qaramlik va uning O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasiga ta’siri..... **62**
Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
Ёшлар учун рақамли бандлик имкониятлари ёшлар бандлигини таъминлашнинг самарали ечими сифатида..... **79**
Баҳриддинова Муаззам Азам қизи
Ўзбекистонда аҳолининг такрор барпо бўлиш жараёнларининг меҳнат ресурслари шаклланишига таъсирини баҳолаш (2026 йил аҳоли рўйхатга олиш натижалари асосида)..... **89**
Гафурова Зебохон Дильшод кизи
Формирование устойчивой модели экономического роста регионов Узбекистана на основе цифровых и экологических инноваций..... **100**
Usmonov Anvar Saidmahmudovich
O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari transformatsiyasi va uning urbanizatsiya jarayonlariga ta’siri..... **110**
Qilichov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li
Yoshlar bandligi va demografik dividend: o'zbekiston mehnat bozoridagi tendensiyalar va ustuvor yo'nalishlar..... **117**
Omanova Kamola Botir qizi
O‘zbekistonda ayollar bandligi va ta’limi bilan tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik: hududiy va tarmoq tahlili..... **126**
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich
Demographic trends and their impact on labour market activity in uzbekistan: evidence on the demographic window of opportunity..... **139**
Нуруддинова Адиба Газиевна
Неформальная занятость: масштабы и пути дальнейшей формализации..... **150**

O‘ZBEKISTON AHOLISINING 2050-YILGACHA DEMOGRAFIK RIVOJLANISH KONSEPSIYASI: USTUVOR MUAMMOLAR VA MAQSADLI KO‘RSATKICHLARNI BAHOLASH

Umurzakov Bahodir Hamidovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
umurzakovboxodir807@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston aholisining 2050-yilgacha bo‘lgan davrda demografik rivojlanishi Konsepsiyasidagi tashxis, ustuvor yo‘nalishlar va kutilayotgan natijalar tahlil qilingan. Konsepsiyadagi sakkizta ustuvor muammo va o‘n bir yo‘nalish o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra guruhlangan, bazaviy demografik ko‘rsatkichlar hamda mehnat bozoriga demografik bosim miqdoriy baholangan. 2030–2050-yillarga mo‘ljallangan o‘n bir maqsadli ko‘rsatkich bazaviy daraja, ifoda aniqligi va muddat bo‘yicha tekshirilgan. Natijalar har yili mehnat yoshiga 520 ming kishi kirgani holda yaratiladigan doimiy ish o‘rinlari 360 mingdan oshmasligini (kamomad kamida 160 ming), o‘n bir maqsadning faqat yettitasi uchun bazaviy qiymat keltirilganini hamda muddat faqat bittasiga belgilanganini ko‘rsatdi. Maqolada maqsadli ko‘rsatkichlarni aniqlashtirish va monitoring tizimini shakllantirish bo‘yicha takliflar asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *demografik rivojlanish, demografik siyosat, Konsepsiya, tug‘ilish, o‘lim, mehnat migratsiyasi, maqsadli ko‘rsatkichlar, O‘zbekiston.*

КОНЦЕПЦИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА ДО 2050 ГОДА: ПРИОРИТЕТНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ОЦЕНКА ЦЕЛЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ

Умурзаков Баходир Хамидович
доктор экономических наук, профессор
Научно-исследовательского Центра “Научные основы
и проблемы развития экономики Узбекистана” при
Ташкентском экономическом Университете

Аннотация. *В статье проанализированы диагностика, приоритетные направления и ожидаемые результаты Концепции демографического развития населения Узбекистана до 2050 года. Восемь приоритетных проблем и одиннадцать направлений Концепции сгруппированы по взаимосвязи, количественно оценены базовые демографические показатели и демографическое давление на рынок труда. Одиннадцать целевых показателей на 2030–2050 годы проверены по наличию базового уровня, точности*

формулировки и срокам. Результаты показали, что при ежегодном вступлении в трудоспособный возраст 520 тыс. человек создается не более 360 тыс. постоянных рабочих мест (дефицит не менее 160 тыс.), что базовый уровень указан лишь для семи из одиннадцати целей, а срок установлен только для одной. В статье обоснованы предложения по уточнению целевых показателей и формированию системы мониторинга.

Ключевые слова: *демографическое развитие, демографическая политика, Концепция, рождаемость, смертность, трудовая миграция, целевые показатели, Узбекистан.*

THE CONCEPT OF DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S POPULATION UNTIL 2050: PRIORITY PROBLEMS AND ASSESSMENT OF TARGET INDICATORS

Umurzakov Bahodir Hamidovich
Doctor of Economics, Professor,
Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes the diagnosis, priority areas and expected results of the Concept of demographic development of Uzbekistan's population until 2050. The eight priority problems and eleven areas of the Concept are grouped by their interdependence, and the baseline demographic indicators and the demographic pressure on the labor market are quantified. Eleven target indicators for 2030–2050 are checked for the availability of a baseline, the precision of wording and deadlines. The results show that 520 thousand people enter working age every year while no more than 360 thousand permanent jobs are created (a shortfall of at least 160 thousand), that a baseline is given for only seven of the eleven targets, and that a deadline is set for only one. The article substantiates proposals for clarifying the targets and building a monitoring system.*

Keywords: *demographic development, demographic policy, Concept, fertility, mortality, labor migration, target indicators, Uzbekistan.*

Kirish.

Demografik jarayonlar – tug‘ilish, o‘lim, oila va migratsiya – mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining uzoq muddatli shartlarini belgilaydi: ular mehnat resurslari hajmini, ta’lim va sog‘liqni saqlashga bo‘lgan talabni, pensiya tizimidagi yuklamani hamda hududlarning o‘sish imkoniyatlarini oldindan aniqlab beradi. Shu sababli demografik siyosat alohida soha siyosati emas, balki boshqa yo‘nalishlar bilan uyg‘un shakllantiriladigan umumiy strategiyaning bir qismi bo‘lishi lozim (United Nations, 1995).

O‘zbekiston bu jihatdan o‘tish bosqichida turibdi. Konsepsiyada keltirilgan

ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yil boshida aholi soni 38,3 million kishiga yetgan, yillik o‘sish 713,7 ming kishini (1,9 foiz) tashkil etgan. 2025-yilda 879,6 ming chaqaloq tug‘ilib, 177,1 ming kishi vafot etgan, ya’ni tabiiy o‘sish 702,5 ming kishiga teng bo‘lgan. Shu bilan birga yosh tarkibi o‘zgarmoqda: so‘nggi uch yilda 60 va undan katta yoshdagilar ulushi 7,4 dan 8,5 foizga ko‘tarildi, mehnat yoshiga esa har yili 520 mingdan ortiq kishi kirib kelmoqda. Boshqacha aytganda, yosh aholining inersiyasi hali kuchli, qarish jarayoni esa allaqachon boshlangan.

Bunday vaziyatda 2050-yilgacha mo‘ljallangan Konsepsiya muhim ahamiyat kasb etadi: u sakkizta ustuvor muammoni ajratib ko‘rsatadi, o‘n bir yo‘nalish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va 2030–2050-yillar uchun kutilayotgan natijalarni sanab o‘tadi. Biroq siyosat hujjatining samaradorligi uning maqsadlarini o‘lchash va kuzatib borish imkoniyatiga bog‘liq. Maqolaning maqsadi – Konsepsiyadagi tashxis va maqsadli ko‘rsatkichlarni miqdoriy jihatdan baholash hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Buning uchun uchta vazifa hal etildi: bazaviy demografik ko‘rsatkichlar tizimlashtirildi; mehnat bozoriga demografik bosim hisoblandi; maqsadli ko‘rsatkichlar bazaviy daraja, ifoda aniqligi va muddat bo‘yicha tekshirildi.

Adabiyotlar sharhi.

Demografik rivojlanishning nazariy asosi demografik o‘tish g‘oyasiga borib taqaladi: Notestein (1945) o‘lim va tug‘ilish darajasining ketma-ket pasayishini sanoatlashuv hamda urbanizatsiya bilan bog‘ladi. Coale va Hoover (1958) yuqori tug‘ilish daromadi past mamlakatlarda jamg‘arma va jon boshiga daromad o‘sishini sekinlashtirishini ko‘rsatgan; Becker (1960) esa bola sonini oilaning iqtisodiy tanlovi sifatida talqin qilib, daromad va bola ‘sifati’ o‘rtasidagi almashuvga e’tibor qaratdi. Keyingi bosqich – ikkinchi demografik o‘tish – Van de Kaa (1987) hamda Lesthaeghe (2010) ishlarida qadriyatlar o‘zgarishi, nikoh va ajralish xulq-atvori nuqtai nazaridan tavsiflangan.

Yosh tarkibi o‘zgarishining iqtisodiy oqibatlari demografik dividend konsepsiyasida umumlashtirilgan. Bloom va Williamson (1998) Sharqiy Osiyo tajribasida mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushining oshishi o‘sishning muhim qismini tushuntirishini ko‘rsatgan; Bloom va boshq. (2003) esa dividend o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligini, u mehnat bozori, ta’lim va institutlar sifatiga bog‘liqligini ta’kidlagan. Mason va Lee (2006) aholi qarigan sharoitda jamg‘arma va inson kapitaliga investitsiyalar orqali ikkinchi dividendga erishish mumkinligini asoslagan, Lutz va boshq. (2008) ta’lim darajasini demografik prognozlarga kiritish zarurligini ko‘rsatgan.

Migratsiya nazariyalarida Lee (1966) «itaruvchi» va «tortuvchi» omillarni ajratgan, Todaro (1969) hamda Harris va Todaro (1970) kutilayotgan daromad farqi va ishsizlik ehtimolini ko‘chish qarorining asosiy sababi deb hisoblagan, Massey va boshq. (1993) esa tarmoqlar, institutlar va kumulyativ sababiyatni qo‘shib, xalqaro migratsiya nazariyalarini umumlashtirgan. Demografik jarayonlarni o‘lchash va prognozlash usullari Preston va boshq. (2001) ishida keng yoritilgan, xalqaro prognozlar esa BMT tomonidan muntazam yangilanadi (United Nations, 2024).

Siyosat maqsadlarini baholashda Doran (1981) taklif qilgan mezonlar – aniqlik, o‘lchanuvchanlik, erishuvchanlik, dolzarblik va muddatlilik – keng qo‘llaniladi. Aholishunoslik va taraqqiyot bo‘yicha Qohira konferensiyasi (United Nations, 1995) demografik omilni barcha ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalarga kiritishni tavsiya qilgan; Konsepsiya ham shu yondashuvga tayanishini bildiradi. Mazkur maqola yuqoridagi mezonlarni O‘zbekiston Konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlariga qo‘llaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil Konsepsiya matni, undagi statistik ma’lumotlar va BMT prognozlariga tayanadi. Tadqiqot uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda hujjat mazmuni tahlil qilinib, uning sakkizta ustuvor muammosi (2.1–2.8-bandlar) va o‘n bir yo‘nalishi (3.1–3.11-bandlar) o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra uch blokka guruhlandi: aholi takror barpo bo‘lishi va salomatligi (tug‘ilish, o‘lim, oila, gender, yetimlik); inson kapitali va mehnat bozori (ta’lim, bandlik); hududiy joylashuv va migratsiya (ichki va tashqi migratsiya, urbanizatsiya). Statistika va kadrlar yo‘nalishlari ularning barchasini ta’minlovchi tizimli blok sifatida qaraldi.

Ikkinchi bosqichda bazaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha oddiy demografik hisob-kitoblar bajarildi: umumiy koeffitsiyentlar, o‘zgarish sur’atlari, yosh guruhlari ulushi, mehnat yoshiga kiruvchilar va yaratilayotgan ish o‘rinlari balansi. Uchinchi bosqichda 2030–2050-yillarga mo‘ljallangan o‘n bir maqsadli ko‘rsatkich uch mezon bo‘yicha – bazaviy daraja keltirilganligi, ifodaning aniqligi (mutlaq yoki nisbiy o‘zgarish, davr) va muddati – hamda ichki uyg‘unlik, ya’ni ko‘rsatkichlarning o‘zaro mosligi nuqtai nazaridan tekshirildi. Hisob-kitoblar muallifga tegishli; ma’lumotlar hisobot davrlari turlicha bo‘lgani uchun jadvallarda davr alohida ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar.

Konsepsiya bazaviy demografik vaziyatni 1-jadvalda jamlangan ko‘rsatkichlar bilan tavsiflaydi. 2025-yilda tug‘ilganlar soni vafot etganlardan 5,0 baravar ko‘p bo‘lgan (879,6 ming va 177,1 ming), tabiiy o‘sish koeffitsiyenti 18,5 promilleni

tashkil etgan. Migratsiya saldosi manfiy (–13,2 ming kishi), ammo u tabiiy o‘sishning atigi 1,9 foizini qoplaydi (muallif hisob-kitobi), shuning uchun aholi o‘sishining asosiy omili hamon tabiiy ko‘payishdir.

1-jadval

Konsepsiyadagi bazaviy demografik ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Qiymat	Davr
Aholi soni, million kishi	38,3	2026-yil 1-yanvar
Aholining yillik o‘sishi, ming kishi (foiz)	713,7 (1,9)	2026-yil 1-yanvar
Tug‘ilganlar soni, ming kishi	879,6	2025
Umumiy tug‘ilish koeffitsiyenti, ‰	23,2	2025
Vafot etganlar soni, ming kishi	177,1	2025
Umumiy o‘lim koeffitsiyenti, ‰	4,7	2025
Tabiiy o‘sish, ming kishi (‰)*	702,5 (18,5)	2025
Migratsiya saldosi, ming kishi	–13,2	hisobot davri
Yosh tarkibi: mehnat yoshidan kichik / mehnat yoshidagi / mehnat yoshidan katta, %	32,2 / 56,0 / 11,8	2025-yil 1-iyul
60 va undan katta yoshdagilar ulushi, %	8,5 (uch yil oldin 7,4)	so‘nggi uch yil
Kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi: jami (erkaklar / ayollar), yosh	75,5 (72,0 / 78,9)	2025
Chaqaloqlar o‘limi, ‰	9,0 (2018-yilda 11,7)	2025
Onalar o‘limi, 100 ming tirik tug‘ilganga	18,5 (2018-yilda 20,2)	2025
Nikohlar / ajralishlar, ming	328,7 / 36,5 (2020-yilda 315,2 / 33,1)	2025

Manba: *Konsepsiya (loyiha) ma’lumotlari. * Tabiiy o‘sish koeffitsiyenti – muallif hisob-kitobi (tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentlari ayirmasi).*

O‘lim ko‘rsatkichlari dinamikasi ikki xil. Chaqaloqlar o‘limi 2018–2025-yillarda 11,7 dan 9,0 promillegacha (23 foizga), onalar o‘limi 20,2 dan 18,5 gacha (8 foizga) pasaygan. Biroq mehnat yoshidagi o‘lim barqaror saqlanmoqda: 2025-yilda 50,2 ming kishi, ya’ni barcha vafot etganlarning 28 foizi shu guruhga to‘g‘ri kelgan, erkaklar o‘limi ayollarnikidan o‘rtacha 1,6 baravar yuqori. Sabablar tarkibida qon aylanish tizimi kasalliklari (34 foiz), baxtsiz hodisalar (21 foiz) va onkologik kasalliklar (16 foiz) birgalikda 71 foizni beradi; bu yo‘qotishlarning katta qismi

profilaktika va xavfsizlik choralariga sezgir sabablarga bog‘liqligini bildiradi. Natijada kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligida jinslar o‘rtasidagi tafovut 6,9 yilga (72,0 va 78,9) yetmoqda.

Oila-nikoh sohasida nikohlar soni 2020–2025-yillarda 4,3 foizga (315,2 mingdan 328,7 minggacha), ajralishlar esa 10,3 foizga (33,1 mingdan 36,5 minggacha) oshgan; ajralishlarning nikohlarga nisbati 10,5 dan 11,1 foizga ko‘tarilgan. Boshqacha aytganda, ajralishlar nikohlarga qaraganda 2,4 baravar tezroq ko‘paymoqda. Yosh tarkibida esa qarish alomatlari aniq: 60 va undan katta yoshdagilar soni uch yilda 19 foizga oshib, ularning ulushi 7,4 dan 8,5 foizga ko‘tarilgan. Konsepsiyada keltirilgan BMT prognozlariga ko‘ra bu ulush 23 foizgacha, ya’ni hozirgidan taxminan 2,7 baravar ko‘payadi.


Eng keskin muammo mehnat bozoridagi muvozanatdir. Konsepsiyaga ko‘ra, har yili 520 mingdan ortiq kishi mehnat yoshiga kiradi, yaratilayotgan doimiy ish o‘rinlari esa 360 mingdan oshmaydi (1-rasm). Bu har yili kamida 160 ming kishilik kamomadni bildiradi; oqimlar o‘zgarmasa, 2026–2030-yillarda u kamida 0,8 million kishiga yetadi (muallif hisob-kitobi). Konsepsiyada yaratilayotgan ish o‘rinlarining qamrov ulushi 65 foiz deb baholangan, 360 ming chegara qiymat sifatida olinsa u ko‘pi bilan 69 foizga (360/520) teng bo‘ladi; ehtimol, hujjatdagi ko‘rsatkich o‘rtacha yillik qiymatga tayangan. Bosim hududlar bo‘yicha notekis: oltita viloyat – Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Andijon, Namangan va Surxondaryo – yangi kiruvchilarning 59,4 foizini beradi (2-jadval).

2-jadval

Mehnat yoshiga kiruvchilar va migratsiya saldosi: eng katta olti hudud

Hudud	Mehnat yoshiga kiruvchilar, ming kishi	Ulushi, %	Migratsiya saldosi, ming kishi
Samarqand viloyati	63	12,1	–5,9
Farg‘ona viloyati	60	11,5	–
Qashqadaryo viloyati	54	10,4	–7,2
Andijon viloyati	47	9,0	–
Namangan viloyati	43	8,3	–
Surxondaryo viloyati	42	8,1	–
Olti hudud jami	**309**	**59,4**	**–**
Boshqa hududlar	211	40,6	–
Respublika bo‘yicha	**520**	**100,0**	**–13,2**

Manba: *Konsepsiya (loyiha) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. Tire (–) – Konsepsiyada ma’lumot keltirilmagan.*



1-rasm. Mehnat bozoridagi yillik balans va kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi: bazaviy va maqsadli qiymatlar

Manba: *Konsepsiya (loyiha) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.*

Hududiy manzara qiziqarli qonuniyatni ko‘rsatadi. Konsepsiyaga ko‘ra tashqi mehnat migratsiyasi eng ko‘p kuzatiladigan olti hudud (Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo) mehnat yoshiga kiruvchilar soni eng ko‘p olti hudud bilan aynan mos keladi. 2025-yilda xorijga ishlash uchun ketganlar 2,36 million kishini (aholining 6–7 foizini) tashkil etgan, bu mehnat yoshiga kiruvchilarning yillik oqimidan 4,5 baravar ko‘p. Ichki mobillik esa past: ichki migrantlar bo‘yicha kelganlar 162,1 ming, ketganlar 164,7 ming kishi, ijobiy saldo faqat Toshkent shahrida (+28 ming) qayd etilgan, eng katta salbiy saldo Qashqadaryo (–7,2 ming) va Samarqand (–5,9 ming) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Bu moslik tashqi migratsiya demografik bosimni qisman yumshatayotganini ko‘rsatadi, biroq bu ta’sirni hisoblash uchun ketganlar sonini hududlar kesimida alohida e’lon qilish zarur.

Konsepsiyaning 2030–2050-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari 3-jadvalda bazaviy darajaga nisbatan baholangan. Jami o‘n bir ko‘rsatkichdan yettitasi (tug‘ilish koeffitsiyenti, aholi o‘sishi, chaqaloqlar va onalar o‘limi, umr ko‘rish davomiyligi, ajralishlar, urbanizatsiya) uchun bazaviy daraja keltirilgan (64 foiz); maktabgacha ta’lim qamrovi, ayollar va yoshlar bandligi hamda qonuniy tartibda ishga yuboriladigan ishchi kuchi bo‘yicha esa bazaviy qiymat yo‘q, shu sababli ularning erishuvchanligini baholab bo‘lmaydi. Aniq muddat faqat ajralishlar koeffitsiyenti uchun (2030-yil) ko‘rsatilgan, qolganlari umumiy 2030–2050-yillar oralig‘iga tegishli.

3-jadval

Konsepsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlarini baholash

Maqsad	Bazaviy daraja	Talab etiladigan o‘zgarish (muallif hisob-kitobi)	Baholash
Tug‘ilish koeffitsiyenti 18–20‰; yillik o‘sish 1,5%	23,2‰; 1,9%	–3,2…–5,2‰ (–14…–22%); –0,4 p.p.	O‘lchanadi; 1,5% o‘sish faqat tug‘ilish ≈19,7‰ bo‘lganda mos
Chaqaloqlar o‘limi har yili 3 punktga, onalar o‘limi 2 punktga kamayishi	9,0‰; 18,5	Tarixiy sur’atdan (yiliga 0,39 va 0,24 punkt) 7,8 va 8,2 baravar tez	Ifoda noreal: 9,0 dan 3 yilda nolga yetadi; yakuniy qiymat yoki foizli pasayish kerak
Umr ko‘rish davomiyligi 77,8 yosh (erkaklar 76,0; ayollar 79,5)	75,5 (72,0; 78,9)	+2,3 (erkaklarda +4,0; ayollarda +0,6)	O‘lchanadi; yutuq asosan erkaklar o‘limiga bog‘liq (6,7 baravar)
Ajralishlar koeffitsiyentini 2030-yilgacha 2 baravar kamaytirish	1,0–1,2‰; ajralishlar 33,1 → 36,5 ming	Yiliga taxminan –12,9% (hozir ≈+2,0% o‘sish)	Bazaviy qiymat ikki xil; tendensiyaga zid
Maktabgacha ta’lim qamrovi 90%	Keltirilmagan	–	Baholab bo‘lmaydi
Ayollar bandligini 25%, yoshlar bandligini 80% ga oshirish	Keltirilmagan	–	Nisbiy yoki mutlaq ekani, yosh chegarasi noaniq
Urbanizatsiya darajasi 60%	51,0%	+9 p.p.; shahar aholisi ≈+5,2 mln (41 mln da)	O‘lchanadi; 3.8 va 3.9-bandlar bilan muvofiqlashtirish zarur
Qonuniy ishga yuboriladigan ishchi kuchini 10% ga ko‘paytirish	Keltirilmagan	–	Bazaviy qiymat yo‘q

Manba: *Konsepsiya (loyiha) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.*

Ichki uyg‘unlik tekshiruvi ham muhim natijalar berdi. Birinchidan, agar tug‘ilish koeffitsiyenti 18–20 promille, o‘lim koeffitsiyenti esa hozirgi 4,7 promille bo‘lsa, tabiiy o‘sish 13,3–15,3 promille (1,33–1,53 foiz) bo‘ladi; shuning uchun 1,5 foizlik o‘sish maqsadi tug‘ilishning yuqori chegarasi (≈19,7 promille) bilangina to‘liq mos keladi, aholi qarishi bilan o‘lim koeffitsiyenti oshsa, o‘sish bundan ham past bo‘ladi. Ikkinchidan, chaqaloqlar o‘limini «har yili 3 punktga» kamaytirish bazaviy 9,0 promilleda uch yilda nolga olib keladi va 2018–2025-yillardagi haqiqiy sur’atdan (yiliga 0,39 punkt, yillik nisbiy pasayish taxminan 3,6 foiz) deyarli 8 baravar tez;

onalar o‘limi uchun ham xuddi shunday. Uchinchidan, umr ko‘rish davomiyligi maqsadida erkaklar uchun +4,0, ayollar uchun +0,6 yil ko‘zda tutilgan: demak, maqsadga erishish mehnat yoshidagi erkaklar o‘limini, ayniqsa qon aylanish kasalliklari va baxtsiz hodisalardan o‘limni keskin kamaytirishga bog‘liq.

To‘rtinchidan, ajralishlar koeffitsiyentini 2030-yilgacha ikki baravar qisqartirish uchun ularning soni yiliga o‘rtacha 12,9 foizga kamayishi kerak, holbuki 2020–2025-yillarda yiliga taxminan 2,0 foizga o‘sgan. Beshinchidan, urbanizatsiyani 51 dan 60 foizga yetkazish 2050-yilda 41 million aholi bo‘lganda shahar aholisini 19,4 dan 24,6 million kishiga, ya’ni 5,2 millionga oshirishni anglatadi; shu bilan birga 3.8-bandda yirik shaharlar va poytaxt aholisi o‘sishini cheklash, 3.9-bandda qishloqdan shaharga erkin ko‘chishga sharoit yaratish ko‘zda tutilgan, bu ikki yo‘nalish bir-biriga zid talqin qilinishi mumkin. Nihoyat, bosqichlar mazmunida (2026–2030 va 2030–2040-yillar) ichki va tashqi migratsiya, urbanizatsiya, statistika va kadrlar yo‘nalishlari (3.8–3.11-bandlar) hamda yoshlar bandligi alohida tadbirlar sifatida ko‘rsatilmagan, vaholanki aynan ular 2.5 va 2.7-bandlardagi muammolarni hal etishi kerak.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, Konsepsiyaning tashxisi demografik vaziyatning ikki tomonlama xususiyatini to‘g‘ri aks ettiradi: tabiiy o‘sish yuqori (702,5 ming kishi), tug‘ilganlar o‘lganlardan 5 baravar ko‘p, lekin qarish alomatlari kuchaymoqda va mehnat yoshidagi erkaklar o‘limi yuqori. Ikkinchidan, har yili mehnat yoshiga kiruvchi 520 ming kishiga nisbatan doimiy ish o‘rinlari 360 mingdan oshmaydi, kamomad kamida 160 ming kishi, 2026–2030-yillarda esa kamida 0,8 million kishi; yangi kiruvchilarning 59,4 foizi oltita viloyatga to‘g‘ri keladi va ular tashqi mehnat migratsiyasi eng yuqori hududlar bilan mos tushadi. Uchinchidan, o‘n bir maqsadli ko‘rsatkichdan yettitasi uchun bazaviy daraja keltirilgan, muddat esa faqat bittasi uchun belgilangan; chaqaloqlar va onalar o‘limi hamda ajralishlar maqsadlari mavjud tendensiyalardan keskin farq qiladi. To‘rtinchidan, bosqichlar mazmunida migratsiya va urbanizatsiya yo‘nalishlari aks etmagan.

Shu asosda quyidagi takliflar beriladi:

- har bir maqsadli ko‘rsatkich uchun bazaviy yil, qiymat, ma’lumot manbasi va hisoblash usulini ko‘rsatuvchi indikator pasportini shakllantirish; bazaviy qiymati yo‘q ko‘rsatkichlar (maktabgacha ta’lim qamrovi, ayollar va yoshlar bandligi, qonuniy mehnat migratsiyasi) uchun ularni birinchi navbatda aniqlash;

➢ chaqaloqlar va onalar o‘limi maqsadlarini yakuniy qiymat yoki yillik foizli pasayish (tarixiy sur’at – taxminan 3,6 foiz) ko‘rinishida qayta ifodalash;

➢ umr ko‘rish davomiyligi maqsadini mehnat yoshidagi erkaklar o‘limi bo‘yicha alohida indikatorlar (qon aylanish kasalliklari, baxtsiz hodisalar) bilan bog‘lash;

➢ bandlik maqsadlarida o‘zgarish turini (nisbiy yoki mutlaq), yosh chegarasini va bazaviy darajani aniqlashtirish, mehnat yoshiga kiruvchilar va yaratilayotgan ish o‘rinlari balansini hududlar kesimida har yili e’lon qilish, olti viloyat uchun alohida chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

➢ ichki va tashqi migratsiya, urbanizatsiya, statistika va kadrlar yo‘nalishlarini birinchi bosqich (2026–2030-yillar) tadbirlariga kiritish, 3.8 va 3.9-bandlar o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish, tashqi migratsiya bo‘yicha ma’lumotlarni hududlar kesimida e’lon qilish;

➢ 2030, 2035 va 2040-yillar uchun oraliq nazorat qiymatlarini belgilash, yillik monitoring hisobotini yuritish hamda Konsepsiyadagi aholi prognozlarini joriy statistika va BMT (2024) so‘nggi nashriga moslab yangilash.

Tadqiqotning keyingi yo‘nalishi – yosh-jins tarkibini hisobga oluvchi kogort-komponent usuli asosida hududiy prognozlarni tuzish, ish o‘rinlari balansini tarmoqlar kesimida baholash hamda boshqa mamlakatlarning demografik konsepsiyalari bilan solishtirishdir.

Adabiyotlar:

1. *Becker, G.S. (1960) ‘An economic analysis of fertility’, in Universities-National Bureau Committee for Economic Research (ed.) Demographic and economic change in developed countries. Princeton: Princeton University Press, pp. 209–240.*

2. *Bloom, D.E., Canning, D. and Sevilla, J. (2003) The demographic dividend: a new perspective on the economic consequences of population change. Santa Monica, CA: RAND.*

3. *Bloom, D.E. and Williamson, J.G. (1998) ‘Demographic transitions and economic miracles in emerging Asia’, World Bank Economic Review, 12(3), pp. 419–455.*

4. *Coale, A.J. and Hoover, E.M. (1958) Population growth and economic development in low-income countries: a case study of India’s prospects. Princeton: Princeton University Press.*

5. *Doran, G.T. (1981) ‘There’s a S.M.A.R.T. way to write management’s goals and objectives’, Management Review, 70(11), pp. 35–36.*

6. *Harris, J.R. and Todaro, M.P. (1970) 'Migration, unemployment and development: a two-sector analysis', American Economic Review, 60(1), pp. 126–142.*

7. *Lee, E.S. (1966) 'A theory of migration', Demography, 3(1), pp. 47–57.*

8. *Lesthaeghe, R. (2010) 'The unfolding story of the second demographic transition', Population and Development Review, 36(2), pp. 211–251.*

9. *Lutz, W., Cuaresma, J.C. and Sanderson, W. (2008) 'The demography of educational attainment and economic growth', Science, 319(5866), pp. 1047–1048.*

10. *Mason, A. and Lee, R. (2006) 'Reform and support systems for the elderly in developing countries: capturing the second demographic dividend', Genus, 62(2), pp. 11–35.*

11. *Massey, D.S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A. and Taylor, J.E. (1993) 'Theories of international migration: a review and appraisal', Population and Development Review, 19(3), pp. 431–466.*

12. *Notestein, F.W. (1945) 'Population – the long view', in Schultz, T.W. (ed.) Food for the world. Chicago: University of Chicago Press, pp. 36–57.*

13. *Preston, S.H., Heuveline, P. and Guillot, M. (2001) Demography: measuring and modeling population processes. Oxford: Blackwell.*

14. *Todaro, M.P. (1969) 'A model of labor migration and urban unemployment in less developed countries', American Economic Review, 59(1), pp. 138–148.*

15. *United Nations (1995) Report of the International Conference on Population and Development, Cairo, 5–13 September 1994. New York: United Nations.*

16. *United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2024) World Population Prospects 2024. New York: United Nations.*

17. *Van de Kaa, D.J. (1987) 'Europe's second demographic transition', Population Bulletin, 42(1), pp. 1–59.*

18. O'zbekiston aholisining 2050-yilgacha bo'lgan davrda demografik rivojlanishi Konsepsiyasi (loyiha) (2026).

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:
Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:
Bahriddinova Muazzam Azam qizi